

Murtazayeva Sayyora Sanoqulovna

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 34 maktab Amaliyotchi Psixologi

Bugungi kunda ko'pchilik umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zining psixologlariga ega. Biroq shunga qaramay direktor va o'qituvchilar ko'pincha psixologning qo'lidan nima kelishi mumkinligini yaxshi tasavvur etolmaydilar. Ularga psixolog hamma muammolarini bir zumda hal qilib beradigandek tuyuladi. Ammo psixologning maktabda ish boshlaganidan keyin maktabda tashqi jihatdan hech narsa o'zgarmaganini ko'rishgach, ularda «Maktab psixologining o'zi nima keragi bor?» degan tipdagi savollar tug'iladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, maktabdagi amaliy ish uchun psixolog o'rgangan nazariy bilimlar yetmay qoladi. Maktabga kelib qolgach, psixologlar ko'pincha amaliyotning ular oldiga qo'ygan muammolaridan dovdirab qoladilar. Shunday ahvolga tushib qolmasligi uchun psixolog avvalo maktabga nima maqsadda borayotganligini aniqlashtirib olishi kerak.

Psixologik xizmatning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiy o'rta ta'lim maktabida quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi:

1. Bolalarning har-bir yosh bosqichida shaxs sifatida va intellektual jihatdan to'laqonli rivojlanishini ta'minlash, ularda o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish:

2. Har bir bolaga individual yondashuvni va uning psixologikpedagogik o'rganilishini taminlash:

3. Bolaning intellektual jihatdan va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan chetga chiqishlarni profilaktika qilish.

Shunday qilib, psixolog maktabga avvalo bolalar uchun keladi. Lekin bu psixolog o'qituvchilar bilan ishlamaydi, degani emas. Psixolog maktabda yengib o'tishi kerak bo'lgan birinchi to'siq - bu maktabning pedagogik jamoasiga qo'shila olishdir. Bordi-yu psixolog bu murakkab organizmga qo'shilib keta olmasa, o'z ishida muvaffaqiyatga erishishi dargumondir.

Dastlabki qadamlarni qo'yishda ota - onalar bilan aloqa o'rnatish juda muhim. Dastlabki aloqa ixtiyoriy xarakterda bo'lishi va o'zi murojaat qilgan ota-onalar bilan amalga oshirilishi kerak. Buning uchun psixolog alohida kun va soatlarni ajratishi lozim. Demak, umumiy o'rta ta'lim maktabida ishni boshlashdan avval psixolog:

1. O'zining pedagoglar jamoasi va maktab ma'muriyati bilan bo'lgan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishi.

2. O'z ishining asosiy maqsadi - bu bolaning optimal rivojlanishini ta'minlash ekanini doim yodda saqlashi.

3. O'zining faoliyatida profilaktik ishga u bilan bevosita bog'liq bo'lgan diagnostik va rivojlantiruvchi ishga alohida e'tibor bilan qarashi (axir kasalni tuzatgandan uning

oldini olgan ma'qulroq- da) lozim bo'ladi. O'qituvchi psixologning mijosi va yaqin hamkori sifatida O'qituvchilar ham alohida e'tibor talab qiladigan ob'ektdir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, odatda o'qituvchilar psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyor bo'ladilar. Hamma gap psixolog o'zini qanday tutishiga borib taqaladi.

Bunda psixologning o'qituvchilarga nisbatan egallaydigan pozitsiyasi juda muhim rol o'ynaydi.

Psixolog pozitsiyasining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

a) pedagog bilan bo'lgan munosabatga ustanovka;

b) pedagoglarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishga ustanovka

v) sub'ekt - sub'ekt munosabatlaridan iborat tenglik va hamkorlik xarakteridagi munosabatlarga ustanovka.

Mana shunday pozitsiya pedagoglar bilan bo'lgan konstruktiv hamkorlikni ta'minlay oladi. Dastlabki kezlarda psixolog o'qituvchilarga o'z yordamini haddan tashqari faollik bilan tiqishtirmasligi zarur. Kamtarona ravishda, agar zarur bo'lsa, yordam berishga tayyorligini ma'lum qilsa, shuning o'zi kifoya.

Kimdir darrov hamkorlikka shoshiladi kimdir birozdand so'ng kimgadir umuman psixolog yordami kerak bo'lmaydi. O'qituvchilar bilan ishlashda bolada ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarga asosan o'qituvchi sababchi bo'layotganini ta'kidlab turishi kerak. Psixologning ishi «soyada» qolishi kerak. SHunda u pedagoglar orasida tan olinadi.

O'qituvchilar bilan olib boriladigan individual ishlardan tashqari ular bilan seminarlar shaklida psixologik targ'ibot ishlarini olib borish maqsadga muvoviqdir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad kimgadir o'z bilimlarini ko'z-ko'z qilish emas, balki pedagoglarning psixologik madaniyatini oshirishdir.

Xulosa qilib aytganda, psixolog o'quvchilar xarakterida mavjud bolgan yutuqlarni rivojlantirish va kamchiliklarni tuzatish, o'z xatti-harakatlarini kuzatish, tahlil qilish, baholash, o'zining kayfiyat va xulq atvorini boshqarish, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish haqida tavsiyalar beradi. Umum o'rta ta'lim maktablarida ish olib borayotgan amaliyotchi psixologlar o'z faoliyati davomida ta'lim muassasining ijtimoiy muhitini muvofiqlashtirishni taminlaydi, va ijtimoiy moslashmaslik ularning zoriqishlarini yuz berishini oldini olish uchun psixologik xizmatning o'rni beqiyos.